

KASBIY TERMINOLOGIK BIRLIKLARNING BADIY ADABIYOTDA SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAVSIFLANISHI

Z. Erdanova ¹, M. Sadriddinova ²

Annotatsiya:

Ilmiy maqolada kasb-hunarga oid nomlar va terminlarni badiiy adabiyotda qo'llanilishini tahlil qilish muammosi tilshunoslar diqqatini tobora o'ziga tortmoqda. Tadqiqotimizda ingliz va o'zbek badiiy adabiyotlarida kasb-hunarga oid terminlar, nomlar va leksemalarning qo'llanilish stilistik uslublari hamda leksik-semantik qo'llanilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: antroposentrizm, uslubiy-stilistik tahlil, leksik til birliklar, obraz, kompozitsion-strukturaviy tahlil, muallif nutqi, syujet, badiiy uslub.

doi: <https://doi.org/10.2024/03m91v71>

Badiiy adabiyot namoyondalari bo'lmish shoir va yozuvchilar asarlarida muayyan xalqning turmush tarzini ifodalashda tilning lug'at boyligidan o'ziga xos tarzda foydalaniladi. Bu usul bilan badiiy asarning g'oyaviy-badiiy qiymatini oshiriladi hamda undagi leksik bo'yoqdorlik kuchaytiriladi. Bilamizki, badiiy adabiyot tili xalq tili bo'lib, so'zlashuv va matbuot tili hisoblanadi, chunki adib asarida hayotiy voqea-hodisalarni tasvirlaganida, qahramonlarni jonlantirishda muayyan sheva va lahjalardan foydalanib kasb-hunarga oid leksemalarning lug'aviy ma'nosini adabiy til me'yorlariga muvofiq ifodalaydi. Har bir yozuvchi asaridagi obrazlarning o'z davriga oid terminlarning arxaik, neologik, o'zlashma, polisemantik leksemalardan foydalanib, asarning badiiy tasvirini o'quvchiga ochib beradi.

Ma'lumki, badiiy uslub tavsiflangan funksional uslublarning eng mukammalidir, shu bois, ham uning xususiyatlaridan to'liq foydalanish hanuzgacha dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Badiiy uslub ijodiy rivojlanadi, emotsional mazmunni stilistik bo'yoqlar bilan yoritib beradi va o'quvchining tasavvurida badiiy matn mohiyatini tasvirlab beradi. Tilshunos V.P.Belyanin ta'kidlashicha, "Badiiy asar matnni yozuvchi voqelikni o'zi tanish bo'lgan parchalarni lingvistik elementlar orqali tasvirlaydi"³.

Shuningdek, badiiy matn orqali yozuvchi o'z fikrini obyektivlashtirish, ya'ni inson va olam haqidagi bilim va g'oyalarni yetkazish; bu g'oyalarni yozuvchi o'z ongi

¹ Z.A.Erdanova, *O'zDJTU ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.v.b.dotsenti*

² Sadriddinova M., *SamDCHTI magistranti*

doirasidan tashqi muhitga o'zi yaratgan asar orqali olib chiqib, uni ommalashtiradi. Yozuvchi o'z ongidagi fikr va g'oyalarni badiiy asarning eng muhim kategoriyasi va asar qiymatini belgilovchi "muallif obrazi" orqali tasvirlaydi. Tilshunos L.A.Novikov bu haqda shunday ta'kidlaydi: "...badiiy asarning mohiyatini ifodalab, uning g'oyaviy, kompozitsion-strukturaviy va lingvistik (stilistik) birligini jamlagan holda, yozuvchi ijodi bilan yaratilgan eng yuqori poetik kategoriya bu muallif obrazidir"¹.

A.B.Koshlyakning fikricha, "muallif obrazi hikoyaning mavzusi bo'lib, u asar mohiyatini yaratadi, yozuvchi o'zi tanlagan badiiy uslub orqali asar obrazida o'z g'oyaviy maqsadini mujassamlashtirib, unga ahloqiy munosabat (salbiy yoki ijobiy) beradi"².

Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda badiiy matnning uchta elementini tahlil qilib ko'rsatiladi: hissiy tasvirga mos mazmuni, matn mazmunini tasvirlovchi ichki qatlam va tasvirni ifodalovchi og'zaki belgisi. Asarning badiiy mazmunini uning obrazli tuzilishi, shakllanishi yohud o'quvchi tomonidan adekvat idrok etilishi, boshqacha aytganda, matnning kommunikativ vazifasini amalga oshirish uning muvofiqlik darajasiga bog'liqdir. Asarning muvofiqlik darajasini muallif til vositalari va o'z g'oyaviy-badiiy taasurotlari orqali uyg'unlashtirib ochib beradi.

Badiiy asarda muallif nutqining obrazligi turli vositalar orqali ob'ektning tasvirini og'zaki nutqda o'ziga xos usulda o'quvchiga voqelikka nisbatan hissiyot uyg'otib yoritadi. Tasviriy komponent, asosan, mantning tavsiflovchi yoki hikoya qiluvchi qismi hisoblanadi. Badiiy asarning barcha jihatlarini (syujeti, qahramonlarning ichki dunyosi, harakatlari, muammoli vaziyatlari), tabiat (landshaft chiziqlari), bino (interer ko'rinishlari), umuman olganda, insonni o'rab turgan dunyoning har qanday bo'lagini badiiy asarning tasvir ob'ekti orqali muallif harakatga keltiradi. Har qanday asar muallifi tasvirlash chiziqlarini so'z bilan ifodalab, obrazlarni o'z bayoni yoki yaratgan obrazlarining nutqi orqali tasvirlaydi. Badiiy asar tasviriy tafsilotlari tegishli nomlar ostida asar qahramonlari yordamida yoritilishi ham badiiy uslublardan biridir. Bunday tahlil asosida asar qahramonlarining tashqi ko'rinishi, xarakteri, ma'lumoti, kasbiy faoliyati, qiziqishlari, ijtimoiy doirasi va boshqa jihatlarini o'quvchining xulosa chiqarishiga ko'mak beradi.

Badiiy asar tilida kasb-hunarga oid leksemalarni ifodalash stilistikaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ko'plab tadqiqotchi olimlarning e'tiborini tortadi. "Слова и образ" asarining muallifi D.N.Shmelev ta'kidlashicha: "badiiy asarda keltirilgan kasb-hunarga oid atamalar odatda asar tasvirini ochish jarayonida faol bo'lmaydi, balki o'quvchiga kasbiy terminlar yordamida asar voqeya taasurotini shakllanib tushunishga ko'mak beradi..."³ Darhaqiqat, badiiy asarda qo'llanilgan kasb-hunarga oid so'zlar badiiy matnni hayot bilan bog'lab, asarga yorqinlik, rang-baranglik baxsh etadi. Bundan tashqari, kasb-hunarga oid atamalar personajlarning nutqiy xususiyatlarini ham tasvirlashga xizmat ko'rsatadi.

Bunday atamalar kontekstda nominativlik funksiyani namoyon etsa, badiiy matnda muayyan sohaga doir ma'lumotlarni saqlagan personaj va vaziyatga doir holatni tavsiflaydi.

¹Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. - М.: Рус. яз., 1988.-С. 12.

²Кошляк А.Б. Категории художественного текста // Стилистика текста. Языковые средства экспрессивности текста. - Уфа: Изд-во Башк., 1989.-С. 47.

³Шмелев Д.Н. Слово и образ.-М.: Наука, 1964. -С.43.

Ilmiy tadqiqotimizda XX-asrning nodir durdonasi bo'lmish, A.Qodiriy qalamiga mansub "O'tkan kunlar" asarida keltirilgan kasb-hunarga oid kontekstlardan tahliliy misollar keltiramiz:

– **Qulimiz.**

Bu so'zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

–**Qulingiz?**

–*Shundog'.* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar)¹

Mazkur kontekstda XX-asrlarda o'ziga to'q xonadon sohiblarining turmush tarzi ifodalaniib, ular o'z xonadonlarida uy xizmatkorlarini saqlab, ularni "**qul**" erkak xizmatchi, "**cho'ri**" ayol xizmatchi deb atashgan. Ushbu "qul" va "cho'ri" so'zlari arxaik hisoblanib, hozirgi kunlarda ham "uy xizmatchisi" leksemasiga ko'chgan va ushbu soha vakillari xonadon sohiblari bilan birga yashashmaydi, aksincha, xizmat vazifalarini belgilangan qonun-qoidalar asosida bajarib, ularga oylik maoshi belgilangan.

– *Shahrimizda Mirzakarimboy otlig' bir **savdogar** kishi bor, bu shuning qizidir. Balki siz Mirzakarim akani tanirsiz, u bir necha vaqt Toshkandda **qutidorlik** qilib turg'an ekan?* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar)²

Quyidagi kontekstda birdan kasb-hunarga oid ikkita so'z "savdogar" va "qutidor" ishlatilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida ushbu leksemalar quyidagicha ta'riflangan:

"**Savdogar**" – savdo qiluvchi, tijoratchi, xususiy savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi, savdo-sotiqni kasb qilib olgan kishi.³

"**Qutidor**" – 1. esk. Quti-quti pul-dunyosi bo'lgan yirik savdogar, boy. 2. tar. Qo'qon xonligida oziq-soliqlardan to'plangan pullarni qabul qilib oluvchi, saqlovchi va xon xazinasiga topshiruvchi saroy amaldori⁴. Hozirgi kunda "qutidor" so'zi arxaik bo'lib, kundalik muomalada ishlatilmaydi. Lekin mazkur so'zga bog'liq zamonaviy pul muomalasi bilan shug'ullanuvchi kasblarga semantik nuqtai nazardan bog'liqdir: g'aznachi, soliqchi va shu kabi so'zlar mavjud.

– *Toshkand begi yonida **mushovir** sifati bilan turadilar.*

–*Azizbek bu kunda ham Toshkandga **hokimdir**?* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar)⁵

Keltirilgan jumlada kasb-hunarga oid ikkita so'z keltirilgan bo'lib, "mushovir" leksemasi "maslahatchi"⁶ ma'nosini bildirib, hozirda arxaik so'z hisoblanib, faqat badiiy adabiyotlarda uchraydi. "Hokim" so'zi umumiste'molda o'z ma'nosini saqlagan holda "ma'lum bir tuman yoki viloyatni boshqaruvchi shaxs" ma'nosida qo'llaniladi.

Tahlil qilingan asar parchalaridan shuni bilishimiz mumkinki, badiiy asarlarda arxaik, yangi yoki stilistik bo'yoqdorlikka ega bo'lgan ko'pgina kasb-hunarga oid leksemalar yozuvchilar tomonidan o'quvchiga asar muhitini yoritish uchun foydalanish ijobiy natijalar olib keladi.

¹Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.30.

²Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.35.

³Ўзбек тилининг изоҳли луғати 3 жилд: - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008.- Б. 414.

⁴Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилд: - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008.- Б. 390.

⁵Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.37.

⁶Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.37.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. Белянин В.П. Психолингвистические аспекты художественного текста. М.: Изд-во МГУ, 1988. - 120 с. Электронный ресурс http://bookz.ru/authors/mark-bloh/prosodia_637/page-2-prosodia_637.html
- [2]. Кошляк А.Б. Категории художественного текста // *Стилистика текста. Языковые средства экспрессивности текста*. - Уфа: Изд-во Башк, 1989. - С. 47.
- [3]. Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. - М.: Рус. яз., 1988. - С. 12.
- [4]. Шмелев Д.Н. Слово и образ. - М.: Наука, 1964. - С. 43.
- [5]. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. - Б.30.
- [6]. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 3 жилд: - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. - Б. 414.
- [7]. Erdanova, Z., & Eshdavlatova, A. (2024, April). Lexical classification of language units. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 43-47).